

ADABIY ALOQALAR MAHSULI

Hasanova Shafoat Saidbekovna

Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasи professor v.b,
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: shafoat80@mail.ru

ANNOTATSIYA

Sharqning ikki buyuk hind va fors-tojik xalqlarining madaniyatlari zaminida vujudga kelgan, turli davrlarga mansub fors-tojik hamda turkiy tilida yozilgan barcha “To‘tinoma” asarlarining ilk manbasi XIV asrda yozilgan Ziyovuddin Naxshabiyning “To‘tinoma” asari hisoblanadi. Maqolada shu kunga qadar maxsus tadqiqot ob’ekti bo‘lmagan Xiromiyning “To‘tinoma” asari birinchi marta Naxshabiy va boshqa ijodkorlar asarlari bilan qiyosiy o‘rganilib, muallifning ijodiyl yutuqlarini ko‘rsatish bilan bir qatorda, salaflari asarlaridan qanchalik foydalanganligi va adabiy an’ana qonuniyatlariga nechog‘lik rioya etgani ham ohib berilgan.

Kalit so‘zlar: To‘tinoma, Naxshabiy, Xiromiy, Xaydarbaxsh, Latifiy, hikoya, syujet, manba, qiyosiy tahlil, asar, qoliplovchi hikoya, an’ana.

АННОТАЦИЯ

Первоначальным источником произведений, созданных в разные времена на тему “Тутинаме” (“Книга о попугае”) на персидско-таджикском и тюркском языках, является “Тутинаме” Зияуддина Нахшаби, написанный на почве культурного наследия двух великих народов Востока – Индии и Ирана. В статье прослеживается произведение “Тутинаме” Хироми, которое до сегодняшнего дня не было объектом научного исследования, впервые исследуется в сопоставительном аспекте с произведением Нахшаби и сочинениями других авторов. Кроме этого определяется творческие успехи Хирами и раскрываются те творческие моменты, которые он взаимствовал у предшественников и как придерживался канонам литературных традиций.

Ключевые слова: Тутинаме, Нахшаби, Хирами, Хайдарбахш, Латифи, рассказ, сюжет, источник, сравнительный анализ, произведение, рассказ рамка, традиция.

ABSTRACT

The original source of the works created in different times on “Tutiname” (“The Book of parrot”) on the Persian-Tajik and Turkic languages is “Tutiname” by Ziauddin Nakhshabi written on the basis of the cultural heritage of two great peoples of the East-India and Iran. The article traces the work “Tutiname” by Hirami, which until today has not been the object of scientific study. For the first time studied in comparative aspect with the work of Nakhshabi and writings of other authors. Besides, defined

creative achievements of Hirami and disclosed those creative moments, which he borrowed from his predecessors and how he adhered to the canons of literary traditions.

Keywords: Tutinamah, Nakhshabi, Khirami, Khaydarbakhsh, Latifi, story, plot, source, comparative analysis, work, story frame, tradition.

O‘zbek mumtoz adabiyoti taraqqiyotida adabiy ta’sir va adabiy aloqalar muhim o‘rin egallaydi. Bir-biriga uyg‘un og‘zaki va yozma yodgorliklar, an’anaviy mushtarak syujetlarning mavjudligi qadimdanoq Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari adabiyotiga xos bo‘lgan hodisadir. Hikoya va qissachilik adabiy an’anasi shu adabiy hodisa bilan aloqador holda, uning ajralmas qismi sifatida maydonga keldi.

Ijodkorlar asarlari asosiga kiritilgan syujetlar Sharq xalqlari og‘zaki ijodida ko‘p uchrovchi ertak va qissalar mazmuniga singdirilganligi bilan ancha mashhurdir. Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bir ijodkorning asari turli ko‘rinishlarda talay xalqlar og‘zaki ijodiyotida mavjuddir. Turli ellarda, turli tillarda, har xil variantlarda jahon kezgan bu ertaklar aksar bir-birini ba’zi o‘zgarishlar bilan takrorlaydi.

“To‘tinoma” mavzuiga bag‘ishlangan dostonlarni bir butun holatda har bir ijodkorning tarixiy, ijtimoiy va estetik qarashlari asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, bu ishni amalga oshirishda, bir tomonidan qator ijodkorlar asarlarining manbalarini aniqlash, syujet va obrazlaridagi o‘xhash va umumiy tomonlarini o‘rganish, ikkinchi tomondan, dostonlarning g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi va kompozitsion tuzilishidagi farqlarni tadqiq etib, har bir shoirming g‘oyaviy-estetik qarashlari va badiiy mahoratini aniqlash, qolaversa, Xiromiyning an’naviy “To‘tinoma”navislikdagi o‘rnini belgilash zarurdir.

Turli mualliflarga mansub bo‘lgan «To‘tinoma»ning qiyosiy tahlili an’ana va ijodiylik masalalari bilan bog‘liq ayrim tomonlarni ravshanlashtirishda ham muhimdir. Ushbu qiyosiy tekshirish Naxshabi, Xaydarbaxsh, Latifi, Asiriy va Mirzabobo dostonlarining o‘zaro ta’sir doirasini yoritish bilan bir qatorda “To‘tinoma”larning o‘xhash va farqli tomonlarini ham aniqlashga yordam beradi.

Naxshabi[1:347] va Xiromiy[2:314] “To‘tinoma”lari qiyoslanganda Xiromiy o‘z dostonida hamd va na’tdan so‘ng kirish qismini “Og‘ozi dostoni “To‘tinoma” deb ajratib, unda Maymun bilan Xo‘jasta haqidagi qoliplovchi hikoyani bayon qilgani va asarning boshidanoq o‘ziga xos kompozitsion uslubni qo‘llaganiga guvoh bo‘lamiz. SHu bois, Xiromiyda Naxshabiyniki singari qoliplovchi hikoya birinchi kecha aytilmaydi. Unda birinchi kechada to‘tining Xo‘jastaga “Tojir to‘tisi va uning xotini haqidagi hikoya” alohida tarzda qoliplovchi hikoyadan ajratib bayon qilinadi. Naxshabiya esa, birinchi kechaning o‘zidayoq qoliplovchi hikoya va tojir to‘tisi va uning xotini haqidagi hikoya birinma-ketin keltiriladi. Bu esa Xiromiy qo‘llagan uslub badiiyat jihatidan ancha o‘ylangan va kompozitsiya jihatidan ham puxta ekanligini

ko‘rsatadi. CHunki Naxshabiy bu o‘rinda qoliplovchi hikoyada to‘tining Xo‘jastaga aytgan hikoyasini hikoyalar silsilasidan ajratmagan holda bayon etgan. Natijada bu uslub qoliplovchi hikoya ichida hikoya bayon qilish tarzida amalga oshirilgan. SHu o‘rinda Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida hikoyalarni bayon qilishda qo‘llagan uslubini eslatib o‘tish diqqatga sazovordir.

Ma’lumki, “Sab’ai sayyor” dostonida ham Bahrom bilan Dilorom haqidagi afsona etti hikoyaning uzviy qismiga aylantirilib, qoliplovchi hikoya sevgi haqidagi asarning ajralmas qismiga aylantirilgan. Navoiy Bahrom bilan Diloromni ov vaqtidagi mojaro tufayli ajralishganlaridan keyin ularning uchrashuvini etti hikoyani bayon etganidan so‘ng amalga oshiradi. Xiromiy dostonini o‘rganar ekanmiz, u ham Navoiyning badiiy uslubini mohirona qo‘llaganligining shohidi bo‘lamiz. Xiromiy ham Navoiy singari avval qoliplovchi hikoyani bayon etadi, bosh qahramon Maymun Xo‘jastani qoldirib, safarga ketganidan so‘nggina hikoyalarni bayon qilishga o‘tadi. Hikoyalar yakunlangach esa, Naxshabiynikidan farqli o‘laroq, 51-kecha hikoyasini 52-kechaga bog‘lab, unda Maymunning safardan qaytib kelish manzarasini hikoyalar tizimiga singdirib yuboradi va asarning bir butunligini ta’minlaydi. Natijada, agar Naxshabiy asaridagi qoliplovchi hikoya bilan ertaklar bir-birlaridan ajratib olinsa, ular ikki mustaqil asarday bo‘lib qolaveradi. Bunday holatni Latifiy, Qodiriy, Xaydarbaxsh asarlariga nisbatan ham aytish mumkin. Demak, Xiromiy o‘z davrining iste’dodli shoiri sifatida Navoiy ijodini puxta o‘rganib, uning ilg‘or an’analaridan ma’lum darajada ozuqa olgan va o‘z asarlariga singdirib borgan, deyish mumkin.

Asarlarning qiyosidan shu narsa yaqqol ko‘zga tashlanib turadiki, Xiromiy Naxshabiyydan olgan hikoyalarning asosiy syujet chiziqlarini saqlab qolgan, lekin ularni badiiy bayon qilishda o‘zining estetik qarashlariga moslab o‘ziga xos yo‘lni tutishga harakat qiladi. Masalan, ikkinchi kecha aytilgan “Tabariston podshosi va uning hayoti sharpasi uchun o‘z o‘g‘lini fido qilishga tayyor bo‘lgan sarboz hikoyasi”ni qiyoslashning o‘ziyoq mazkur fikrimizning to‘g‘riligiga dalil bo‘la oladi.

Bu hikoyaning boshlanishida har ikki ijodkor quyoshning botishi va oyning ko‘tarilish manzarasini go‘zal o‘xshatishlar, o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlar orqali ifodalab beradilar. Naxshabiy quyoshning zavol topishini dunyo bo‘ylab kezib yuruvchi Iskandarning mag‘rib zimistoniga cho‘mganligiga o‘xshatsa, Xiromiy ham Iskandar so‘zini “panoh” ma’nosida qo‘llab quyoshning jilovlanib Mag‘rib zaminidan makon topganligini o‘ziga xos badiiy uslubda ifodalaydi. Naxshabiy oyni yulduzlar sarkardasiga o‘xshatsa, Xiromiy uni yorning jamoliga va uning oq pardasini mashriqqa yoyilib zuhur etishiga qiyos etadi.

Bu hikoyalarda har ikkala asar syujetida uncha farq bo‘lmasa-da, lekin uni yoritishda qo‘llanilgan badiiy uslublarda o‘ziga xoslik yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Ikkinchi kecha aytilgan har ikkala hikoyada ham sarboz shoh hayotining sharpasi

uchun o‘z farzandini fido qilmoq orqali o‘zining shohga bo‘lgan sadoqatini namoyish qiladi va buning evaziga shoh uni katta mukofot bilan taqdirlaydi. Hikoyalardagi farq ayrim lavhalardagina ko‘zga tashlanadi. Naxshabiy qahramoni ilgari Xo‘jand hokimi sarbozi bo‘lgan, o‘z qadrini hokim oldida topolmagan sarboz uni tark etib, Hindiston podshohi huzuriga keladi. Xiromiyda ham sarboz mazkur sabab bilan Hindiston podshohi huzuriga xizmatga keladi, lekin unda sarbozning qaerdan kelganligi haqida ma’lumot keltirilmaydi. Xiromiy sarbozi Hindiston podshohi haramini qo‘riqlaydi, Naxshabiyda esa, u boshqalar qatori saroy posbonidir. Xiromiyda hikoya yakuni sarbozning podshoh tomonidan vazirlik darajasiga ko‘tarilishi va molu dunyosining yarmini berishi bilan tugasa, Naxshabiyda podshoh uni o‘ziga voris etib, bor molu dunyosini unga bag‘ishlaydi.

Naxshabiy va Xiromiy asarlaridagi uchinchi kechadan to to‘qqizinchi kechada aytilgan hikoyalarning asosiy mazmunlari bir-birlariga yaqin, ulardagi farq ayrim detallardagina ko‘zga tashlanadi.

Naxshabiy va Xiromiy asarlari aksariyat hollarda hikoyalar tartibi va ularni mukammal bayon etish uslublari bilan bir-birlariga yaqin. Har holda Naxshabiy asarida keltirilgan deyarli barcha hikoyalar Xiromiy asarida o‘zining badiiy ifodasini topgan. Xususan, Xiromiy asarida to‘qqizinchi kechagacha bayon etilgan hikoyalar tartibi Naxshabiyniki bilan aynan monand. Keyingi hikoyalar ham orada ba’zan bir, ba’zan ikki kecha farqi bilan keltirilgan. Hikoyalar tartibidagi bunday farqlarni shu bilan izohlash kerakki, Xiromiy o‘z asari tarkibiga yangi hikoyalar va ikki-uch o‘rinda Xaydarbaxsh dostonidagi hikoyalardan foydalanib, ularni o‘z asariga kiritgan. Shunday hikoyalar sirasiga Xiromiyning o‘n ikkinchi kecha (Xaydarbaxshda o‘n sakkizinchi kecha bayon etilgan) to‘rt o‘g‘rining bir kishi javohirlarini o‘g‘irlaganligi va buni shohning dono qizi fosh qilganligi, Banoras shahzodasining xotini va uning bir ayg‘ir qashqir tufayli sharmanda bo‘lishdan qutulib qolganligi (Xiromiyda o‘n beshinchi, Xaydarbaxshda o‘n ikkinchi kecha hikoyasi) yoki shoh Muxlisning baqani ilonning domidan qutqarib qolganligi va yaxshiligiga yaxshilik qaytganligi haqidagi (Xiromiyda o‘n ettinchi kecha hikoyasi, Xaydarbaxshda yigirma uchinchi kecha hikoyasi) hikoyalarni kiritish mumkin. O‘z navbatida Naxshabiy asaridagi musiqaning vujudga kelishi, musiqa asboblarining xosiyati va ularning ixtiro qilinishi (o‘n to‘qqizinchi kecha hikoyasi), Banoras shahzodasi, uning go‘zal xotini va uning bir yigitga oshiq bo‘lib qolganligi (yigirma birinchi kecha hikoyasi), Arslon va to‘rt vazir (yigirma ikkinchi kecha hikoyasi), shuningdek o‘n birinchi, o‘n ikkinchi kechalar aytilgan hikoyalar Xiromiy dostonidan o‘rin olmagan.

Naxshabiy, Xiromiy asarlarini Latifiy [4:150] “To‘tinoma”si mundarijasи bilan solishtirib chiqilsa, Latifiy asarlaridagi hikoyalarning deyarli barchasi Xiromiy hikoyalari bilan ham mazmun ham hikoyalar bayoni tartibiga ko‘ra bir xil. Faqat

Latifiy dostonidagi o‘n to‘rtinchi kecha hikoyasi, ya’ni “Ilmi musiqanining kayfiyati” sarlavhali hikoya, Naxshabiyning o‘n ettinchi kecha hikoyasidan olingan, Xiromiy dostonida bu hikoya yo‘q. SHu bois Latifiy bilan Xiromiy dostonlaridagi hikoyalari tartibi bir raqamga kamayib borgan. Bu hol qirq to‘qqizinchchi kechagacha davom etadi. Qirq to‘qqizinchchi kecha “Ziroat bilan shug‘ullanuvchi uch aka-uka haqidagi hikoya” Latifiy tomonidan ijod qilingan yoki boshqa manba asosida qayta yaratilgan. Shu bois, bu hikoya ham Naxshabiy, Xiromiy va boshqa “To‘tinoma” asarlarini yaratgan ijodkorlar dostonlaridan o‘rin olmagan. Xiromiyda keyingi elliginchi va ellik birinchi kecha hikoyalari raqamlari tartibi yana Latifiyniki bilan monand ravishda davom ettirilgan.

Xiromiy salaflarining hikoyalari murojaat qilar ekan, goho ularning syujet chiziqlariga to‘la rioya qilish bilan birga ayrim muhim lavhalarni bayon qilishda yangi iboralar, tamoman yangi badiiy uslublar qo‘llaydiki, bu omillar ijodkor asarining o‘ziga xosligi va badiiy qiymatini belgilab berishga xizmat qiladi.

Xiromiy dostonidagi o‘ziga xoslik u yashagan tarixiy muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois ham bu syujetning davrlar o‘tishi bilan yangi inkishofi u yoki bu xalqning shu syujetga bo‘lgan intilishi va talabi oqibatida yuzaga kelgan, desak yanglishmagan bo‘lamiz. Bu o‘rinda tarixiy-ijtimoiy sharoit bilan birga madaniy aloqalar ta’siri ham muhim omil bo‘lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Зийа ад-дин Нахшаби. Книга попугая. Перевод с персидского Е.Э. Бертельса. Подготовка к изданию, предисловие и примечания Д.Е. Бертельса, «Наука», 1982. 347 с.
2. Тўтинома. Ўздавлат бадиий адабиёт нашриёти, Тошкент, 1962.
3. Мулло Қурбон Хиромий. Тўтинома. Нашрга тайёрловчи: Ш. Ҳасанова, Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. 314 б.
4. O‘zRFA Sharqshunoslik institutining H. Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar fondida 3229 raqam ostida saqlanayotgan Latifiy “To‘tinoma”si qo‘lyozma nusxasi.